



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAVOIY VILOYAT
NAVBAHOR TUMANI HOKIMINING
QARORI**

210200, Navbahor t., Boburshoh k 4, tel: (79) 562-15-82, 562-11-84, 562-14-76,
e-mail: navbahor@nv.uz, info@navbahor.uz

2023 - yil 27 - oktabr

148-5-73-Q/23

Navbahor tuman hokimligi

Viloyat hokimining 2023-yil 17-oktyabrdagi “Viloyatda 2024-yil hosili uchun g‘alla navlarini joylashtirish, don ekish agregatlarini ta’mirlash, ekish uchun yer tayyorlash va ekish mavsumini uyushqoqlik bilan tizimli tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 198-5-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

Tumanda 2024-yil hosili uchun kuzgi boshoqli don ekinlarini o‘z vaqtida ekish ishlarini uyushqoqlik bilan tashkil etish, talab etiladigan moddiy resurslarni kafolatli yetkazib berish, sifatli sara urug‘lik don tayyorlash va qishloq xo‘jaligi korxonalariga tizimli yetkazib berish hamda ekish texnikalarini mavsumga tayyorlash ishlarini belgilangan muddatlarda yakunlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-oktabrdagi VM-1149-sonli yig‘ilish bayoni ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. Viloyat hokimining 2023-yil 17-oktyabrdagi 198-5-0-Q/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

2024-yil hosili uchun kuzgi boshoqli don ekish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va g‘alla ekish mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil etish bo‘yicha tuman ishchi guruhi tarkibi (keyingi o‘rinlarda – tuman Ishchi guruhi) 1-ilovaga muvofiq;

tumanda 2024-yil hosili uchun boshoqli don ekinlarini joylashtirishning

maqsadli ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq;

tumanda 2024-yil hosili uchun serhosil, sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan kuzgi boshoqli don ekinlarini navlar bo‘yicha joylashtirishning maqsadli ko‘rsatkichlari 3-ilovaga muvofiq;

tumanda 2024-yil hosili uchun boshoqli don ekinlarini ekishda talab qilinadigan mineral o‘g‘itlar va yonilg‘i moylash resurslari miqdori 4-ilovaga muvofiq;

3. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiysi tuman bo‘limi (A.Rizoqulov), tuman O‘simpliklar karantini va himoyasi bo‘limi (E.Tuxliyev), tegishli tashkilotlar va don korxonalari bilan birgalikda:

2024-yil hosili uchun ekiladigan urug‘lik donning (tozalash, saralash, kassalik va zararkunadalarga qarshi dorilash) ishlarini qat’iy nazoratga olish;

zarur bo‘lgan urug‘lik donni belgilangan navlar bo‘yicha tayyorlash rejadvaliga muvofiq bir hafta muddatda dorilash va qadoqlash ishlari yakunlansin;

urug‘lik sexlarining mavsumda uzlusiz ishlashini, urug‘lik donning sifatlari tayyorlanishini, reja-jadval asosida belgilangan muddatlarda joylarga yetkazib berilishini ta’minlasin;

urug‘lik don tarqatish shaxobchalarini fermer xo‘jaliklariga yetkazib berish uchun qulay masofada tashkil etish hamda mavsumga shay holda bo‘lishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Xudoynazarov) bir hafta muddatda hududlarning tuproq iqlim-sharoitlaridan kelib chiqib, boshoqli don ekinlarini ekish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyanomani ishlab chiqib, joylarga yetkazsin.

5. Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiysi tuman bo‘limi (A.Rizoqulov), tuman ichki ishlar bo‘limi (U.Shukurov), “Agrobank” ATB tuman filiali (A.Ubaydullayev) tegishli tashkilotlar:

kuzgi boshoqli don ekish mavsumi uchun sotib olinadigan yangi qishloq xo‘jaligi texnika va uskunalariga mablag‘lar ajratish;

g‘alla ekish uchun yer tayyorlash, ekish texnikalari, shu jumladan, g‘o‘za qator orasiga don ekish agregat va moslamalarining mavsumda uzlusiz ishlashini tashkil etsin.

6. Tuman irrigatsiya bo‘limi (A.A’zamov) tegishli tashkilotlar bilan birgalikda:

sho‘ri yuvilib boshoqli don ekiladigan maydonlarda sho‘r yuvish uchun, boshoqli don ekilib sug‘oriladigan maydonlarni sug‘orish uchun belgilangan me’yorlarda suv resurslari bilan ta’minlasin;

sho‘r yuvish ishlarini tasdiqlangan reja-jadvalga muvofiq yakunlasin, boshoqli don ekilgan maydonlarni peshma-pesh sug‘orishni tashkil etsin.

7. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi (N.Xudoynazarov), Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyasi tuman bo‘limi (A.Rizoqulov) kuzgi boshoqli don ekinlari ekilgan maydonlarni xatlovdan o‘tkazishni tashkil etsin va natijasi bo‘yicha joriy yil 1-noyabrga qadar tuman hokimligiga axborot kiritsin.

8. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari F.Hamroyev zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi v.v.b



Soibnazarovich J. M.

Navbahor tuman hokimining
2023-yil 27-oktabrdagi
148-5-73-Q/23-son qaroriga
1-ilova

**2024-yil hosili uchun kuzgi boshoqli don ekish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish va g‘alla ekish
mavsumini uyushqoqlik bilan tashkil etish bo‘yicha
tuman ishchi guruhi tarkibi**

T/r	F.I.Sh	Lavozimi
1	F.Hamroyev	- tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘ribbosari, Ishchi guruh rahbari o‘ribbosari
2	N.Xudoynazarov	- tuman qishloq xo‘jaligi bo‘lim boshlig‘i, Ishchi guruh rahbari o‘ribbosari
3	A.A'zamov	- tuman irrigatsiya bo‘lim boshlig‘i
4	V.Ro'zimurodov	- tuman ichki ishlar bo‘lim boshlig‘i o‘ribbosari
5	A.Rizoqulov	- Agrosanoat majmui ustidan nazorat qilish inspeksiyaning tuman bo‘lim boshlig‘i
6	A.Ubaydullayev	- Agrobank ATB tuman filiali boshqaruvchisi
7	U.Mirzayev	- tuman fermer, dexqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi raisi
8	A.Qurbanov	- "Saroy uni" MChJ g‘allachilik klasteri rahbari
9	X.Xo‘jayev	- tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi mutaxassisi, Ishchi guruh kotibi

Navbahor tuman hokimining
2023-yil 27-oktabrdagi
148-5-73-Q/23-son qaroriga
2-ilova

Tumanda 2024 yil hosili uchun boshoqli don ekinlarini joylashtirishning maqsadli ko'rsatkichlari

T/r	xududlar nomi	Jami g'alla maydoni, ga	Shundan		
			suvli maydonda, hektar	Shu jumladan	Ialmi yerlarda, hektar
				ozuqa uchun ekiladigan maydon, hektar	
1	Бешрабод	1 216	1216	189	
2	Кескантепак	1 611	1611	250	
3	Арабсарой	991	991	153,6	
4	Янгиқўргон	822	822	127,1	
5	С. Жўраев	547	547	84,5	
6	Уч тут	603	603	93,9	
7	Туркистон	936	936	145,2	
8	Янги йўл	838	838	129,7	
9	Навбаҳор	819	819	127,3	
	Бошқалар	667	667		
Туман жами		9 050	9 050	1 300	

Navbahor tuman hokimining
2023-yil 27-oktabrdagi
148-5-73-Q/23-son qaroriga
3-ilova

**Tumanda 2024 yil hosili uchun serhosil, sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan
kuzgi boshoqli don ekinlarini navlar bo'yicha joylashtirishning maqsadli
KO'RSATKICHLARI**

T/r	xududlar nomi	Ekin maydoni, ga	Shu jumladan, sug'oriladigan yerlarda										Yangi navlar		
			Asr	Vassa	Grom	Navbahor	Tanya	Alekseich	Antonina	Gurt	Bezostaya-100	Davr	Vexa	Yuka	Bobur
1	Бешрабод	1 027					627	400							
2	Кескантекрак	1 361					404	957							
3	Арабсарой	837		537	300										
4	Янгикўргон	695		400	295										
5	С. Жўраев	463					263	200							
6	Уч тут	509		223			286								
7	Туркистон	791						407			384				
8	Янги йўл	708		486	222										
9	Навбахор	692						400			292				
	Бошқалар	667						536					55	50	26
Туман жами		7 750		1 646	817		1 580	2 900			676		55	50	26

Navbahor tuman hokimining
2023-yil 27-oktabrdagi
148-5-73-Q/23-son qaroriga
4-ilova

**Tumanda 2024-yil hosili uchun boshoqli don ekinlarini ekishda talab qilinadigan
mineral o‘g‘itlar va yonilg‘i-moylash resurslari miqdori**

T/r	xududlar nomi	G‘alla maydoni, gektar	Jami talab etiladigan mineral o‘g‘it (fizik xolda)				Talab etiladigan yonilg‘i-moylash resurslari		
			Fosforli (ammofos hisobida)		Kaliyli		Jami, tonna	Shundan	
			tonna	o‘rtacha 1 ga/kg	tonna	o‘rtacha 1 ga/kg		ochiq maydon bo‘yicha, tonna	g‘o‘za qator orasi bo‘yicha, tonna
1	Бешрабод	1 216	265	217	71	59	45	20	25
2	Кескантепак	1 611	351	217	95	59	60	27	33
3	Арабсарой	991	216	217	58	59	37	16	20
4	Янгиқўргон	822	179	217	48	59	30	14	17
5	С. Жўраев	547	119	217	32	59	20	9	11
6	Уч тут	603	131	217	35	59	22	10	12
7	Туркистон	936	204	217	55	59	35	16	19
8	Янги йўл	838	183	217	49	59	31	14	17
9	Навбахор	819	178	217	48	59	30	14	17
	Бошқалар	667	145	217	39	59	25	11	14
Туман жамии		9 050	1 971	217	531	59	335	150	185